

TEXNOLOGIYA FANINI DUAL TA'LIM TIZIMI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI¹ Ochilov Shokir Baxtiyorovich² Sharipov Abdumalik Axmadovich^{1,2} Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchilari³ Xoliqulova Ruxshona Normurodovna³ Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Hozirgi kunda jamiyatimizda kechayotgan keskin evolyutsion – tadrijiy o'zgarishlar xalq xo'jaligining barcha sohalari singari ta'lim sohasida ham o'z ta'sirini ko'rsatishi bilan birga bu yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar oldida ma'lum bir dolzarb vazifalarni qo'yimoqda.

Ta'lim sahasidagi ana shunday vazifalardan biri pedagogika institutida ta'lim olayotgan bo'lajak texnologiya o'qituvchilari tayyorlash sifatini oshirish, hozirgi zamon talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasidir.

Bu masalaning dolzarbligi hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 16 iyundagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-284-sonli qarori II bo'lim "b" bandida -professional ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari bilan integratsiyasini ta'minlash, sohada dual ta'lim shaklini rivojlantirish, o'quvchilar amaliyotini yuqori saviyada tashkil etish va kelgusida ularni ish bilan band qilishni joriy etish belgilab berilgan

Dual ta'lim dasturi — professional ta'lim muassasasi va tashkilotda ta'lim oluvchining muayyan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyatini va mehnat vazifalarini bajarishiga qaratilgan davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi, o'quv dasturlari, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti dasturlariga asoslangan holda ishlab chiqilgan.

Jahon ta'lim tizimini dual ta'lim dasturiga asoslangan holda modernizatsiyalash, o'qitishning metodik asoslarini zamonaviy rivojlanish tendentsiyalariga muvofiq takomillashtirish amaliyotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, texnologiya fanini dual ta'limi dasturi asosida o'qitish orqali o'quvchilarning kasb-hunarga yo'naltirish bilan birga kasbiy kompetentligini tarkib toptirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishdan iborat.

Dual tizim, hatto o'zini oqlagan bo'lsa ham, uni kamdan kam mamlakatlarda uchratish mumkin. U kasb-hunar ta'limining bir necha o'qitish joylariga bo'linganligi bilan xarakterlanadi va ba'zida korxonalararo o'quv markaziga yuboriladi. Kasb-hunar maktabi maxsus nazariy va umumiy ta'limni beradi. Ular aniq biror bir kasbga bog'liq fanlarni, umumiy kasbiy fanlarni yoki siyosiy va umumta'lim fanlarni o'qitadi. Ta'lim, din va madaniyat ishlari vazirlari kengashida tasdiqlangan namunaviy o'quv rejaga asoslangan holda har bir kasb-hunar maktabi o'zining o'quv rejasini ishlab chiqadi. Ishlab chiqarish korxonasida, ya'ni ish joyidagi ta'lim amaliy kasb-hunar ta'limini beradi. "Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Nizom"da belgilab berilgandek, korxona o'z vaqtini rejalashtirishni, o'qitish joyini va o'qitish metodini erkin tanlaydi. Korxonalararo va korxona ichidagi o'quv markazda qisman ta'lim kurslari o'tkaziladi.

Germaniya dual ta'lim dasturi hududlar bo'yicha turlicha shakllangan va 4 bosqichdan iborat bo'lib, uning ta'lim tizimi bolalar bog'chasi va maktabgacha bo'lgan davrdan keyin majburiy boshlang'ich ta'lim bilan boshlanadi.

Maktab turiga bog'liq bo'lmagan yo'naltirish bosqichlari, ya'ni 5- va 6-sinflar ikkinchi bosqich sanaladi.

Birinchi bosqich: – asosiy maktab attestati yoki real maktab attestatini olishgacha yoki gimnaziyaning yuqori sinfigacha bo'lgan davrni qamrab oladi va asosiy maktab, real maktab va gimnaziya yoki bitta birlashtirilgan maktablarda amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqich: – ikkinchi bosqich, birinchidan keyin boshlanadi, u gimnaziyaning yuqori sinflari yoki kasb-hunar maktablarini qamrab oladi.

Uchinchi bosqich: – oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini olish bilan boshlanadi va oliy o'quv yurtlari hamda kasbiy akademiyalarda amalga oshiriladi.

To'rtinchi bosqich: – kasb-hunar ta'limidan keyingi xususiy va kasbiy malaka oshirish. Bularga kasbiy tayyorgarlik kurslarini o'tkazadigan muassasalar va xalq universitetlari kiradi.

Germaniya kasb-hunar ta'limining dual tizimida kasb-hunar ta'limi dual tizimga asosan tashkil etilgan. "Dual" tushunchasi ikkilik degan ma'noni bildiradi va uning asosiy elementidan biri korxona bo'lsa, ikkinchisi kasb-hunar maktabi hisoblanadi. Korxona va kasb-hunar maktabi hamkorlikda kasb-hunar ta'limi jarayonini ta'minlaydi. Korxona va kasb-hunar maktabi o'rnashgan joyi va ishlash vaqti turli xil bo'lsada, bir-biri bilan hamkorlik qiladi.

Odatda korxona va kasb-hunar maktabining vazifalari quyidagicha taqsimlangan: korxona amaliy ko'nikmalarni o'rgatishga, kasb-hunar maktabi esa nazariy bilimlarni berishga mas'ul. Real hayotda korxona nazariy mashg'ulotlarni ham o'tkazadi, kasb-hunar maktabida esa nazariy mashg'ulotlarga qo'shimcha ravishda amaliy mashg'ulotlar ham o'tkaziladi. Bundan kelib chiqish aytish mumkinki, dual tizimida bir-birini takrorlash o'rniga, bir-birini to'ldirib borish juda muhimdir.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tupdan isloh qilish, dual ta'lim tizimiga asoslangan texnologiya fanini fanlararo aloqadorlikni ta'minlashning integrativ mexanizmlarini takomillashtirishning metodik tizimini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, kasb-hunarga yo'naltirishning, nazariy bilimga asoslangan holda ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalarni amaliy jihatdan tizimli qo'llash asosida o'quvchilarning kasbiy savodxonligini oshirish ishlab chiqarish va kasbiy bilimlarning integrativlikka ustuvorlik berish asosida daxldorlik tuyg'usini tarbiyalashning ilmiy asoslarini tadqiq etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy, iqtisodiy, shaxsiy va kasbiy faoliyat bilan uyg'unligini ta'minlash, kundalik faoliyatda kasbiy bilimlarni amaliyotga samarali qo'llay olish layoqatini tarkib toptirish, kasb-hunarga yo'naltirish sohasini takomillashtirish orqali umumta'lim fanlarini ishlab chiqarishda sodir bo'layotgan muammolar yechimini hal etish bilan integratsiyalab o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ochilov Shokir Baxtiyorovich Improving the methodology for the development of environmental competencies of students in the interdisciplinary teaching of physics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Year : 2021, Volume : 11, Issue : 10 First page : (1269) Last page : (1273) Online ISSN : 2249-7137. Article DOI : 10.5958/2249-7137.2021.02237.0
2. Ochilov Sh.B. Texnologiya fanini fanlalaro o'qitishda o'quvchi ekologik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 7 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337
3. Khamroeva Sevara Nasriddinovna THE THEORETICAL SIGNIFICANCE OF DEVELOPING LOGICAL THINKING SKILLS AMONG FUTURE PHYSICS TEACHERS uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 193-196

4. Laylo Turdieva, Khamroeva Sevara Nasriddinova METHODOLOGY FOR TEACHING THE TOPIC "DEVICE USED IN CRAFTS" uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com225-227
5. Usmonova Sohiba Toyir qizi JCROSS (CROSSWORD) – BLOCK USAGE METHODOLOGY uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 236-241
6. O'. K. Sunnatova, G. I. Saifullayeva Research in students in physics and astronomy classes and the development of competencies of the XXI century. Ways of organizing project activities of students in physics education Uzbek Scholar Journal Volume-24, January, 2024 www.uzbekscholar.com 101-108
7. Sayfullayeva Gulhayo Ikhtiyor kizi, Bozorova Aziza Murodilla kizi The practical importance of an integrative approach to teaching astronomy from a small school age uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 130-133
8. Saifullayeva Gulhayo volunteer daughter Interactive Applications From Astronomy And Ways To Manage Them Uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 123-129
9. Kamolov Ikhtiyor Ramazonovich FEATURES OF USING MATHEMATICAL KNOWLEDGE AND LAWS OF PHYSICS IN TEACHING ASTRONOMY Uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 152-157
- 10.I.R. Kamolov, G.I. Sayfullaeva -Formation of teacher's competence in the performance of laboratory and experimental works Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125, 2020
11. Ochilov Shokir Baxtiyorovich, Nematov Bahron, Sharipov Abdumalik Axmadovich, Mavlonova Yulduz Ilhomovna, Usmonova Sohiba Toyir qizi PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL DIAGNOSTIC BASES OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN TECHNOLOGY EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 2FEBRUARY 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ
12. Nematov Bahron, Sharipov Abdumalik Ahmadovich, Ochilov Shakir Bakhtiyorovich, Mavlonova Yulduz Ilhomovna POSSIBILITIES OF USING INTERACTIVE TOOLS IN EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 6 JUNE 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ
12. D.I.Kamalova, S.N.Abdusalomova. "Zamonaviy innovatsion ta'lim". Journal of universal science research. Volume 1. Issue 1. 17 january, 2023. pp. 187-189.
13. Nematov Baxron, Bisenova Bakit Tobakabulovna, Shamsiyev Makhkam Sultanovich, Mavlonova Yulduz Ilkhomovna FREQUENT VIBRATIONS OF SINGLE CYLINDER SYSTEMS// Harvard Educational and Scientific Review, 2022
14. А.А. Ахмедов, И.Р. Камолов, Ф.Б .Мардонова Модернизированная модель проведения лабораторных работ по физике // Инновационные тенденции развития системы образования//Сборник статей Международной научно-практической конференции. Чебоксары 2013
15. A. Qutbedinov, Y. Mavlonova USE OF INNOVATIVE METHODS IN TEACHING TECHNOLOGICAL EDUCATION // Science and innovation, 2023
- 16.M. S. Shamsiyev, Sh. Ochilov G. Karimova O'QUVCHILARGA TOMCHILATIB SUG'ORISH TEXNOLOGIOYASINI O'QITISH METODIKASI// Uzbek Scholar Journal Volume- 25, February, 2024 www.uzbekscholar.com

17. Bisenova Bakit Tobakabulovna, Mavlonova Yulduz Ilhomovna, Xudoyberdiyev Nufar Zafarjon o'g'li
// UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARIGA KONSTRUKSIYALASH ELEMENTLARINI
O'RGATISHNING SAMARADORLIGI
18. B.N Khushvaqtov Didactic factors affecting improvement academica: an international
multidisciplinary research journal 2021ñ 1823-1826.